

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI RANGTASVIR ORQALI KASBIY
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Mansurova Maftuna Sobirovna

Nizomiy nomidagi TDPU, Tasviriy san'at kafedrasi 1-kurs magistranti

Karimova Arofat Hasan qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, Tasviriy san'at kafedrasi 1-kurs magistranti

Egamberdieva Diyora Baxtiyor qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, Tasviriy san'at kafedrasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini rangtasvir orqali kasbiy kompetensiyasini amaliy va nazariy rivojlantirish metodikasi haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: portret, avtoportret, janr, realistik portret, ufq chizig'i, havo perspektivasi, ko'rish nuqtasi, kompozitsiya, perspektiv qisqarish, rang, axromatik ranglar, xromatik ranglar, mato, tus, grizayl, surtma, ranglavha, issiq va sovuq ranglar, asar

Аннотация: В статье рассматривается методика практического и теоретического развития профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства средствами живописи.

Ключевые слова: портрет, автопортрет, жанр, реалистический портрет, линия горизонта, воздушная перспектива, точка зрения, композиция, перспективное сокращение, цвет, ахроматические цвета, хроматические цвета, холст, тон, гризайль, мазок, этюд, теплые и холодные цвета, картина.

Annotation: The article discusses the methodology of practical and theoretical development of professional competence of future visual arts teachers through painting.

Keywords: portrait, self-portrait, genre, realistic portrait, skyline, aerial perspective, point of view, composition, perspective reduction, color, achromatic colors, chromatic colors, canvas, tone, grisaille.

Mamlakatimiz prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-aprelda qabul qilingan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-29,09-sonli farmonida shunday deyiladi: “Oliy ta’lim muassasasi o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xorijiy tajribalarni joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalarida stajirovkadan o‘tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayapti”. “Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustivor vazifalar mos holda, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta ko‘rib

chiqish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliv ma'lumotli mutaxasislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish”, deb ko'rsatiladi.

Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o'rni, shifobaxshligi, tarbiyaviy, falsafiy va ruhiy tomonlari haqida juda ko'p ma'naviyat xazinalari qoldirib ketganlar. Afsuski, bu ma'naviy merosdan to'liq foydalana olmayapmiz. Chunonchi, ta'lim va tarbiyada, tibbiyat, tyexnika, qishloq xo'jaligi, iqtisod va boshqa sohalarda bu masalalarga yetarli darajada urg'u berilmayapti. Xolbuki, jahonning rivojlangan mamlakatlarida ranglarning inson hayotidagi o'rniga juda katta ahamiyat berilmoqda.

Ajdodlarimizni amaliy san'at turlaridan qoldirgan ma'naviy me'rosiga murojat qilsak har bir buyum yoki bezak bo'lmasin, ularni shakli, rangi va hajmga ega. Masalan, o'sha bezakni rangi inson psixikasiga turlicha ta'sir etadi, bu ranglar o'ziga xos ramziy ma'noga hamda shifoviy xususiyatga ega bo'ladi. Shunday ekan Tasviriy va amaliy san'at bo'lajak usta-muallim rangtasvir fanini chuqur va atroficha bilishi zarur.

Ma'lumki inson tashqaridan qabul qiladigan ma'lumotning 90 % ni ko'rish o'rgani orqali qabul qiladi. Ko'z esa inson xatti-xarakatning amalga oshishda 70-90 % ro'l o'ynaydi. Demak inson faoliyatida rangni ahamiyati juda ulkandir. Shuning uchun ham atrof muhitni ongli ravishda rang tanlanishi, ilmiy asoslangan hamda estetik nuqtai nazardan yondoshilgan bo'lishini taqozo qiladi.

Tasviriy san'at asoslarini puxta egallah talabaga tabiatdagi barcha shakllar tuzilishi xaqidagi qonuniyatlarini to'g'ri ko'rish va tushunishga, ko'rganini to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Ammo kelajakda mahoratlari rassom-pedagog bo'lish uchun bular hali yetarli emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talaba naturadan rasm chizishning asosiy qonun-qoidalarini yaxshi tushunib eslab qolsada, lekin olgan nazariy va amaliy bilimlarini amalda qo'llay olmaslik hollari uchrab turadi. Shuning uchun u nazariy bilimlardan tashqari tasviriy san'atda ijro va texnik mahoratiga ham ega bo'lishi zarur. U amaliy mashq jarayonida texnik jihatdan qiynalmasligi kerak. Texnik mahoratlarni erkin va mohirlik bilan egallah talabaning ijodga to'la berilishini, ijodiy qobiliyatlarni amalga oshirishni va yuqori malakali rassom-pedagog bo'lish imkonini beradi. Tasvirlash mahoratini yuzaki egallagan talaba o'zini amaliy ish jarayonida erkin his etmaydi va natijada o'z fikri, hissiyotlarini to'la ifoda etib bera olmaydi. Bu barcha san'at turlari, ayniqsa, tasviriy san'atning asosi bo'lgan qalamtasvir uchun taalluqlidir[1,89]. Qadimgi akademik ta'lim maktablarida tasvirlash texnikasiga katta e'tibor berilgan. Shuning uchun, usta rassomlar ilgari rasm chizish san'ati bilan bиринчи bor tanishishda o'z shogirdlariga vazifa sifatida usta rassomlar tasvirlagan namunalardan nusxa bajarish kerakligini aytganlar. Asosiy e'tibor tasvir bajarish texnikasiga qaratilgan. Dars jarayonida yosh pedagog-rasomning ijodiy faoliyatini rivojlantirish usullaridan biri yetuk rassomlar mahoratini o'rganishga jalb etish hisoblanadi. Talabaga taniqli rassomlar o'z mahoratlarini qanday egallaganliklari bilan tanishtirish va asarlarda obrazlarni turlicha talqin etilishini ko'rsatib, bu bilan yoshlarni faol ijodiy jarayonga jalb etamiz. Bu esa ba'zan kamlik qiladi. Shuning uchun pedagog

auditoriyada bajariladigan bu kabi vazifalardan tashqari uyga vazifa sifatida buyuk rassomlar ishlagan namunalaridan ham nusxa olish topshiriqlarini berib borishi kerak. Bu topshiriqlar talabaga obrazlarni yanada ifodaliroq tasvirlashga o'rgatish bilan bir qatorda, usta-rassomlarning tasviriy vositalardan qanday mohirona foydalanganliklarini o'rganib boradilar. Har bir pedagogning rasm chizishga o'rgatish metodikasi va individual tizimi o'ziga xos bo'ladi. Talaba to'g'ri texnik tayyorgarlikka ega bo'lsa, u har qanday pedagog-rassom rahbarligida saboq olmasin, kelgusida tajribali rassom-pedagog bo'lib yetishib chiqadi. Pedagogning mahorati shunda belgilanadiki, u har bir talabaga uning tasvirlash texnikasiga mos ravishda ko'rsatma berib, ta'lim tarbiya usullaridan keng foydalana olishi va talabaga to'g'ri ko'rsatma berishidadir. Tasvirlash mahorati - bu insonning ilgari olgan tajribasi asosida ma'lum usul va uslublarni qo'llash bilan qandaydir bir shaklni haqqoniy bajara olish qobiliyatiga aytiladi. Badiiy ijodiy faoliyatda mahorat avvaldan olingan bilim va ko'nikmalar asosida yuzaga keladi. Yoshlar bilan ishlashda mahoratni asta-sekinlik bilan rivojlantirish va takomillashtirib borish muhimdir. Talabalar ishini diqqat bilan kuzatish, ularning har biriga to'g'ri yondoshish, kerakli ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Pedagogning o'z o'quvchilarini maqtashi, rag'batlantirishi, hurmat qilishi ijodiy faoliyat uchun foydalidir. Biroq rag'batlantirish usuli emotSIONAL munosabat, o'quvchining irodasi, ish qobiliyati, o'ziga baho bera olishi bilan mos kelgandagina foydali bo'ladi. Talabalar ijodiy faoliyatga qizg'in kirishib boradilar, lekin ayrim hollarda o'z ishlari natijalaridan qoniqmasliklari natijasida pedagogdan aniq ko'rsatmalar kutadilar, bu paytda rahbar talabaning yo'l qo'ygan xatolarini aniq kýrsatib, yordam berishi talabani yanada ruxlantirib yuboradi. Natijada talaba ishni bosqichma-bosqich davom ettirib ishni yakunlaydi. Talabalar turli materiallardan (qalam, sangina, sous, ko'mir) samarali foydalanib qalamchizgi, ranglavhalar chizishlari ularning mahoratlarini oshirib boradi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan hulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, talabalarga muvaffaqiyatli ta'lim tarbiya berish uchun, pedagog ularning har biri uchun o'ziga xos individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Har bir o'quvchi alohida o'ziga xos e'tiborni talab etadi va faqatgina shularni hisobga olibgina pedagog o'z shogirdining ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishida katta samaraga erisha olishi mumkin. Shu jihatdan ham, oliy ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitilishini yangicha tashkil etish, uning mazmuni va metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. Talabalarda rangtasvir fanini o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni anglashi, tushunishi va uning faol ishtiroychisiga aylanishi kabi muammolar o'z yechimini topishi zarur. Tasviriy san'atni o'rganish jarayonida talabalar uning oddiy qonuniyatlarini (to'g'ri joylashtirish, perspektiv qisqarish, qarash nuqtasi, rang va tus munosabatlari) ham nazariy ham amaliy o'zlashtirib boradilar.

Hozirgi kunda darslarining sifat-samaradorligini oshirish maqsadida yurtimizda ko'plab samarali ishlar amalga oshirilayapti. Shu jumladan, zamonaviy pedagogik

texnologiyalarga bag'ishlangan bir qator o'quv adabiyotlar, fan darsliklari, metodik qo'llanmalar chop etilmoqda.

Xususan ta'lif tizmining barcha bo'g'inlarida tasviriy san'at fanini o'qitishda samaradorlikka erishishga alohida e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lif muassasalarida san'at yo'naliishida tahsil olayotgan talabalar uchun tasviriy san'at fanlarida qo'llaniladigan metodlar darslarini samaradorligini oshirishda ulardan o'rinali, oqilona, unumli foydalanish natijasida darslarning sifat-samaradorligi oshishiga erishilganligi o'z isbotini topdi. Xulosa qilib aytganda tasvir ishlash xox, u qalamtasvir bo'lsin, xox rangtasvir bo'lsin, akademik usulda shartli bosqichlarga bo'lib olib boriladi. Bunday bir-biri bilan uzviy bog'liq holda, metodik ketma-ketlikda faoliyat yuritish o'quv-mashq vazifasini muvaffaqiyatli bajarishning omili bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Khamidovich, T. N., Nozimovich, T. N., Ibrohimovna, Y. N., Ravshanovich, J. R., & Kholmuratovich, M. K. (2019). DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH TEACHING" LANDSCAPE PAINTING. Journal of Critical Reviews, 7(6), 2020.
- 2.Talipov Nigmatjon Nozimovich, Yuldasheva Nilufar Ibrahimovna, & Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2020). Development Of Student's Creative Abilities In The Fine Arts In The Higher Education System . The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(07), 232–238. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue07-30>
- 3.Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. Spanish Journal of Society and Sustainability, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
- 4.Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Zbirnik naukovix prats ΛΟΓΟΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
- 5.Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>
6. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. Zbirnik naukovix prats ΛΟΓΟΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12> 7.
- Talipov , N. ., & Talipov , N. (2021). Problema istoricheskogo janra v izobrazitelnom iskusstve: vzglyad na tvorcheskuyu shkolu xudojnika Malika Nabiyeva. Obshestvo i innovatsii, 2(4/S), 607–613. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/Spp607-613>
- 8.Talipov Nozim Khamidovich, & Kholmurodova Fotima, Kholmurodova Zukhra.

6 – TOM 6 – SON / 2023 - YIL / 15 - IYUN

(2022). FEATURES OF ART EDUCATION FOR FUTURE FINE ART TEACHERS. CURRENT International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities Hosted from Barcelona, Spain <https://conferencea.org> Nov. 29th 2022
17 RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(01), 33–39.
<https://doi.org/10.37547/pedagogicscrjp-03-01-06> 9. Talipov, K. N. (2021). Is graphics important in painting?. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 984-990.